




**TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**TOSHKENT VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

**2023- YIL
YANVAR-IYUL**

2023- yilning yanvar-iyul oylarida, Toshkent viloyatida jami 7618,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022- yilning mos davriga nisbatan 108,3 %ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.





2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*

Yillar kesimida soni



1467

•Bino va inshootlar qurish

363

•Fuqarolik obyektlarini qurish

1022

•Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022- yilning shu davriga nisbatan 71,4 %ni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 51,4 % ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 69,7 %ga yetdi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 12,7 % ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 97,3 %ga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi esa 35,9 % ulushni va o'tgan yilga nisbatan 68,1 %ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, %da
	01.08.2023- y.	01.08.2022- y.	
Toshkent viloyati	2852	3996	71,4
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	126	202	62,4
Olmaliq	129	211	61,1
Angren	164	281	58,4
Bekobod	115	182	63,2
Ohangaron	102	136	75,0
Chirchiq	280	339	82,6
Yangiyo'l	79	90	87,8
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	61	93	65,6
Ohangaron	62	86	72,1
Bekobod	91	121	75,2
Bo'stonliq	107	140	76,4
Bo'ka	110	138	79,7
Quyichirchiq	63	87	72,4
Zangiota	209	292	71,6
Yuqori Chirchiq	175	240	72,9
Qibray	293	414	70,8
Parkent	100	115	87,0
Piskent	57	86	66,3
O'rta Chirchiq	146	215	67,9
Chinoz	91	140	65,0
Yangiyo'l	134	202	66,3
Toshkent	158	186	84,9



2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, %da


Qibray (10,3)



Chirchiq sh. (9,8)



Zangiota (7,3)





Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyul oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik va mikrofirmalar	norasmiy sektor
Toshkent viloyati	7618,3	1545,0	4284,4	1788,9
shaharlar:				
Nurafshon	390,2	31,5	338,1	20,6
Olmalik	1165,3	942,7	150,6	72,0
Angren	216,1	5,4	173,5	37,2
Bekobod	254,3	124,8	105,8	23,7
Ohangaron	126,0	0	107,8	18,2
Chirchiq	320,3	83,7	215,8	20,8
Yangiyo'l	195,1	0,1	171,6	23,4
tumanlar:				
Oqqo'rg'on	215,7	0	194,6	21,1
Ohangaron	264,9	1,9	207,5	55,5
Bekobod	75,9	0	44,1	31,8
Bo'stonliq	240,5	29,2	78,0	133,3
Bo'ka	189,4	0	163,0	26,4
Quy Chirchiq	429,8	0,5	365,3	64,0
Zangiota	762,1	0,6	526,1	235,4
Yuqori Chirchiq	714,1	79,4	445,9	188,8
Qibray	704,0	220,0	261,9	222,1
Parkent	147,6	0	52,5	95,1
Piskent	127,1	0	107,9	19,2
O'rta Chirchiq	349,5	18,6	220,4	110,5
Chinoz	129,2	0	79,2	50,0
Yangiyo'l	230,7	6,6	101,6	122,5
Toshkent	370,5	0	173,2	197,3



2023- yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1545,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilga nisbatan 114,6 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 9,8 % punktga ko'payib, 20,3%ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 56,2 %ni to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 2,2 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 104,4 %ni tashkil etgan holda 4284,4 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, %da

56,2

2023- yil
yanvar-iyul

58,4

2022- yil
yanvar-iyul



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Zangiota tumani (526,1, so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 12,3 %), Yuqori Chirchiq tumani (445,9 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 10,4 %), Quyi Chirchiq tumani (365,3 mlrd. so'm yoki 8,5 %)ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 23,5%ni tashkil etdi yoki 1788,9 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 112,8 %ni tashkil etdi.

2022- yil
yanvar-iyul

1409,3
mlrd. so'm


2023- yil
yanvar-iyul

1788,9
mlrd. so'm

22,4%

23,5%

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **165,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **7452,9** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,2 %** va **97,8 %**ni tashkil etdi.



Davlat mulki



Nodavlat mulk

Ulushi %da



2023- yil
yanvar-iyul



2022- yil
yanvar-iyul

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi %da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 24,3 %ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,6 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 10,3 % punktga kamayib, 40,6 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 10,9 % punktga ko'payib, 35,1%ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 18,2 %ni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 6,8 % punktga kamaydi.


Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 81,8 % (6,9 % punktga ko'paydi)ni tashkil qilmoqda.



ulushi %da



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 24,5 % punktga kamaydi va 5,1 %ni tashkil etdi. Qolgan 94,9 %i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 24,5 % punktga ko'paydi.



Yirik qurilish tashkilotlari ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

2022- yil yanvar-iyul

2023- yil yanvar-iyul

Ma'lumot uchun: Qurilish biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Qurilish — moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuri-tish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turar joylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa obyektlar Qurilish mahsu-lotlari hisoblanadi.

Qurilish O'zbekiston Respublikasidagi moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan birini tashkil etadi. Respublika iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot tarkibida salmog'iga ko'ra Qurilish sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin III o'rinda turadi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 202-86-70